

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti

PEDAGOGIKA FAKULTETI

«Pedagogika» kafedrası

5140800-Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3- kurs talabasi

Jo'rayeva Shalolaning
«Pedagogik konfliktologiya» fanidan

KURS ISHI

MAVZU: Oiladagi munosabatlar tizimi va ularda yuzaga keladigan
konfliktlar

Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov

Samarqand - 2014

REJA

KIRISH

ASOSIY QISM

- 1. Oiladagi shaxslararo munosabatlar tizimi**
- 2. Oilaviy shaxslararo munosabatlarning bola tarbiyasiga ta'siri**
- 3. Er-xotin orasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar**

Xulosa

KIRISH

Dolzarlighi. Davlatimiz kelajagi ham, rivojlangan mamlakatlar orasida tutgan mavqeyi va salohiyati ham, dunyoqarashi, bilimi, aql-zakovati, Vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi hamda mas'uliyatini teran anglashi, bugungi avlodga bog'liqdir. Shu bois yurtimizda jamiyatning asosini tashkil etadigan, uning eng muhim bo'g'ini bo'lgan oilaga alohida e'tibor berilishi bejiz emas, albatta.

Yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan 2010 yil «Barkamol avlod» yili deb e'lon qilinishi, o'sib kelayotgan yosh avlod haqida g'amxo'rlik respublikamizning asosiy maqsadiga aylanganligini yana bir bor tasdiqlamoqda.

Mustaqillik yillarida respublikamiz tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va yo'l – yo'riqlarda xalqimizning ijtimoiy – madaniy yuksalishini ta'minlovchi fikrlar, tavsiyalar berildiki, bular jamiyatimizning asosi – oilaning ijtimoiy – iqtisodiy va ma'naviy kamolotida muhim rol o'ynada. Chunki oilalarning har tomonlama yuksalishi, ta'bir joiz bo'lsa, jamiyatning yuksalishi demakdir. Xuddi shu ma'noda yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti muhim masaladir. Ikkinchi tomondan, jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo'lgan talabi ham kun sayin ortib bormoqda. Zotan, ota-onalarning bolalar tarbiyasi yuzasidan ma'suliyatini kuchaytirish, tarbiyalashga oid layoqatini oshirish, oilaviy va ijtimoiy tarbiya birligini ta'minlash hozirgi kunning **dolzarb** masalasidir.

Maqsad va vazifasi. Kurs ishida oila va undagi shaxslararo munosabatlar tizimi, oilaviy shaxslararo munosabatlarning bola tarbiyasiga ta'siri, bola faoliyatini oilada tashkillashtirish masalalari, oilada ma'naviy, axloqiy va madaniy malakalarni shakllantirish kabi masalalarni nazariy tahlil qilish va yoritish **maqsad va vazifa** qilib olingan.

Amaliy ahamiyati. O'zbekiston respublikasining madaniyat, maorif, yangi insonni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faoliyati hamda milliy asar durdonalari va qadriyatlar o'zbek oilalarining to'la ma'noda erkin va har tomonlama kamoloti uchun asos bo'la oladi. Xuddi shu ma'noda malakaviy bitiruv

ishimizdagi tahliliy mulohazalardan yangi barkamol insonni voyaga yetkazish uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining «Mustahkam oila yili» davlat dasturi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Prezident I.A.Karimovning barkamol avlod tarbiyasi bo'yicha g'oyalari, ma'ruzalari, Sharq mutafakkirlarining oilada munosabatlar odobi bo'yicha qarashlari, shuningdek pedagog-psixolog olimlarning oila madaniyati va muloqoti muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari tadqiqotimiz uchun asos qilib olindi.

ASOSIY QISM

1. Oiladagi shaxslararo munosabatlar tizimi

Inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi; xususan, bolada iroda, odatlar, fe'l-atvor, xulq, atrofga munosabat, e'tiqod va qarashlar vujudga keladi. Shu bois turmushda insonni kamol toptirish sharoitlari, ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini izchil o'rganmay turib, shaxsning xususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Ma'lumki, oila – ijtimoiy-tarixiy belgiga ega bo'lgan muayyan tuzilishli ijtimoiy guruhning ko'rinishi. Chunonchi, uning a'zolarini qarindosh-urug'chilik, nikoh, turmush sharoiti birligi, odob-axloq umumiyligi, ma'naviy ehtiyoj mosligi kabi aloqalar o'zaro bog'lab turadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan turmushdagi va oila a'zolari munosabatlaridagi o'zgarishlar uning moddiy-maishiy, iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir.

Oila a'zolarining o'zaro muomalalarini tadqiq qilgan venger sosiologi M.Komlosi 10-14 yoshdagi maktab o'quvchilarining o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhiti (vaziyat, sharoit, holat) omillarini to'rt rypyhga ajratadi:

1) ota-onalarning jamoatchilik faoliyati (ularning mafkuraviy qarashlari va ishga nisbatan munosabatlari);

2) oila ichidagi munosabatlari (ota va ona munosabati, ota-onalarning buva va buviga munosabatlari, aka-ukalar va opa-singillarning o'zaro munosabatlari);

3) ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati (ularning tarbiyaviy muammolari, qiziqishlari, maktab bilan hamkorliklari, o'quvchilarga dars tayyorlash kezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy ahamiyati);

4) oilada o'quvchining faoliyati (o'quvchining kundalik tartibi, xo'jalik ishlaridagi muayyan majburiyati) va boshqalar.

M.Komlosi yiqqan materiallarini tahlil qilib, oila muhiti (vaziyati, sharoiti, holatini) uch toifaga: **ijobiy, o'zgaruvchan va salbiy** toifalarga ajratadi.

Psixolog olim V.I.Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda otalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir, degan xulosaga keladi. Muallif oilalarni yo'nalishiga qarab, uch toifaga mansub ekanligini ko'rsatib beradi: **ijtimoiy-ilg'or yo'nalishdagi oila, ziddiyatli yo'nalishga ega bo'lgan oila, past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oila.**

Birinci toifaga xos bo'lgan oilalar bizdagi oilalarning ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Bunday oilalarda shaxslararo munosabatlar axloq prinsiplari va qoidalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, shuningdek har tomonlama kamol topgan shaxsning ijtimoiy ideali (yuksak orzu timsoli) nazarda tutiladi. Ijtimoiy-ilg'or yo'nalishdagi oilalarning voyaga yetgan a'zolari ishlab chiqarishda, korxonada, jamoat ishlarida faol qatnashadilar, ilg'or madaniyatga nisbatan qiziqishlarini namoyish qiladilar, shuning bilan birga bu narsaga o'z farzandlarida ham havas uyg'otadilar. Oilada goho namoyon bo'ladigan ziddiyatlarni juda qisqa muddatda hamjihatlik bilan bartaraf qiladilar. Ushbu toifaga mansub oilalarda xo'jalik ashyolari, asboblari, qimmatbaxo materiallar har xil ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraladi, bu narsalar shaxsning kelajak istiqboli bilan mutlaqo bog'lanmaydi.

Ikkinchi toifadagi oilada barqaror yo'nalish bo'lmaydi. Oilaviy turmush munosabatlari uzluksiz ravishda biron-bir g'oyaning boshqa g'oya bilan o'zaro niqoblangan kurashi bosqichida bo'ladi; u yoki bu qarashlarning ustunligi, istiqboli hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Bunday holatning ko'zga tashlanishi eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashni anglatmaydi. Er-xotinning yoki boshqa voyaga yetgan oila a'zolarining murosasiz pozitsiyalari (nuqtai nazarlari) ko'pincha ularning fe'l-atvor xususiyatlaridagi tafovut negizi bilan bog'liq bo'lib, mutlaqo eskilik sarqiti mohiyatidan kelib chiqmaydi. Oilada so'z bilan ish birligi masalasi bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda bo'ladi. Faqat burch hissiga, muayyan majburiyatni bajarishgina oila a'zolarini o'zaro birlashtirib turadi. Mana bunday oilalarda er-xotinning bolalarga ta'sir o'tkazish uchun kurashi, raqobati yaqqol namoyon bo'ladi.

Uchinchi toifaga mansub oilalarda ko'pincha meshchanlik udumi va ideallari hokimlik qiladi. Mazkur oilalarda barcha narsa yagona narsaga bo'ysundirilgan, ya'ni mol-dunyo to'plashga, moddiy-maishiy jihatdan ustunlikka erishishga qaratilgan. Voyaga yetgan oila a'zolarining, ota-onalarning korxonada, muassasada, tashkilotda mehnat qilishi ana shu ko'zlagan maqsadga yetish vositasi sifatida, har qanday mehnat esa, ish xaqi miqdori bilan o'lchanadi. Oila boshlig'ining zo'ravonligi, zolimligi, unga ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishlik, sajda qilishlik, zaif va nimjon oila a'zolari faolligini poymol qilishga intilish va hokazolar ustun bo'ladi. Meshchanlik ideali va diniy e'tiqod doirasidan tashqari chiqish hollari (kitob o'qish, ijtimoiy turmush faoliyatida ishtirok etish) kamsitilib, bekorga vaqt sarflash deb baholanadi. Shu boisdan past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalardan xudbin, qo'rqqoq, jamiyat uchun kam nafi tegadigan o'g'il-qizlar yetishib chiqishi mumkin.

Fan olamida oiladagi turmush munosabatlarining juda ko'p qirralari o'rganilgan. Jumladan, har bir oila a'zolarining yashayotgan mikromuhitda tutgan o'rni va erishgan obro'si, oilalarda er-xotin munosabatlari, ota-onalarning farzandlarga nisbatan muomalalari, turli yoshdagi farzandlarning o'zaro muloqoti, ularning ota-onalarga munosabatlari, oila a'zolarining begona kishilar bilan muloqagga kirishish xususiyatlari, ular o'rtasida o'zaro yordam va birdamlik xususiyatlari, uy-ro'zg'or yumushlari taqsimoti, xordiq chiqarish, oila a'zolarida muloqat ko'lamining kengayishi (oilada doirasidan tashqari chiqish) kabi shaxslararo munosabatlarning rang-barang jihatlari tadqiq qilingan. Shunga qaramasdan, oiladagi turmush munosabatlarining ko'pgina tomonlari chuqur tekshirilmagan, oilada oqilona munosabatlarni amalga oshirish uchun tayyor andazalar yetarli emas.

Oiladagi munosabatlar ta'sirida ilk bolalikdan umumiy ishga sodiqliq, vatanparvarlik, insonparvarlik, qat'iylik, qadr-qimmat hissi kabi yuksak insoniy hislar shakllana boshlaydi. Asta-sekin tug'ishganlarga g'amxo'rlik, aka-ukalik va opa-singillik mehri, ota-onalarga muhabbat va shafqat kabi tuyg'ular namoyon bo'la boradi. Turmushdagi samimiy va oqilona munosabatlar, iliq ruhiy iqlim ta'siri natijasida oila a'zolarida kamtarlik, ko'ngilchanlik, iltifot, sabr, uyatchanlik,

to'g'rilik, yaxshilik, yumshoqlik, dilkashlik, mehribonlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, mehnatga mas'uliyat, ozodalik, izzat-nafs, tejab-tergashlik kabi shaxs xislatlari tarkib topadi. Agarda oilalardagi turmush munosabatlari qo'pollik, andishasizlik negiziga qurilgan bo'lsa, u holda oila a'zolari ruhiy dunyosida kekkayish, pismiqlik, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar qoidalarini sezmaslik, ularni mensimaslik, yalqovlik, mas'uliyatsizlik, ifloslik, bag'ritoshlik, shuhratparastlik, dimog'dorlik, illatlari o'nib chiqadi.

Shaxslararo munosabatlarning bir necha ko'rinishlari mavjud ekanligi ijtimoiy psixologiya hamda pedagogik-tarbiyaviy sohalarda qayd qilib o'tilgan.

Oila boshlig'i hisoblangan ota-onalarning asosiy diqqat-e'tibori axloq normalari va qoidalari talabidan kelib chiqqan holda o'z farzandlarida ijobiy xarakter xislatlarini zamon ruhiga mos shaxs fizilatlarini shakllantirishga qaratiladi. Mazkur toifadagi oila a'zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, mulohazalar o'zaro tenglik, o'zaro hurmat ruhiga bo'ysundiriladi. Oila munosabatlarining ushbu ko'rinishida turli yoshdagi o'g'il-qizlarga maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy-pedagogik ta'sir o'tkazish tizimi o'z xususiyati bilan ajralib turadi. Unday oilada shaxslararo munosabatda ta'sir o'tkazish sohalari yashiringan holda bo'ladi. Shu boisdan, tasodifan voqyea va hodisalarning sodir bo'lishi turlicha baholanadi va ularga bevosita aloqador oila a'zolari turmush tajribasidan kelib chiqqan holda, rag'batlantiriladi yoki jazolanadi. Mana bunday odilona amalga tushirilgan muloqot ta'sirida o'g'il-qizlarda do'stlik, dilkashlik, xushmuomalalilik, shaxsiy xatti-harakatida va mulohaza yuritishida mustaqillik, shaxsiy qarashlari saqlangan holda yangi me'yor va talablarga moslashish, o'z faoliyati uchun javobgarlik, emosional zo'riqish davrida o'z-o'zini qo'lga olishlik kabi muhim fazilatlar paydo bo'ladi.

Oila munosabatlarining yana bir turi «avtoritar» deb atalib, bunda ota-onaning obro'si hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Oila a'zolarining yurish-turish, xatti-harakati ko'pincha cheklab qo'yiladi. Ota-ona tomonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy metodi — jazolash hisoblanadi. Biroq onda-sonda rag'batlantirish metodidan foydalanilganda ham, u bolaga ma'naviy ozuqa bermaydi. Farzandlarda

ota-onaga yaqinlik, mehr hissi kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzoqlashish, «begonalashish» kechinmasiga aylanadi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar ularni qondirmaydi; natijada odamovi, tund, ichimdagini top, tashvishlik, xavotirlik kabi ijtimoiy me'yor va qoidalarga qiyinchilik bilan moslashishdan iborat xarakter xislatlari vujudga keladi. Shu sababdan oila a'zolari ruhiy dunyosida simpatiya (yoqtirish), empatiya (hamdardlik), samimiylik, xayrixohlik kabi yuksak insoniy his-tuyg'ular juda nursiz ifodalanadi. Ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishga asoslangan munosabatlar negizida yotgan tarbiyaviy ta'sir qo'rqqoq va irodasi kuchsiz shaxsni tarkib toptiradi.

Oiladagi turmush munosabatlarining aralash yoki qorishma toifasida bola shaxsini shakllantirishning muayyan pedagogik tizimi mavjud emas. Oila a'zolari o'rtasida bo'ladigan munosabatlar aksariyat hollarda ugit-nasihat, axloqiy suhbat, yo'l-yo'riq ko'rsatish bilan bog'lanib ketadi.

Bunday ota-onaning farzandlari bilan muloqoti erkdan va botinib fikr yuritishdan uzoq bo'lganligi sababli, yumor hissiga befarqlik, o'z-o'zini qo'lga ololmaslik, masuliyatsizlik, tanglik (stress), zo'riqish holatini his qilmaslik, yetarli darajada shaxslararo aloqa o'mata olmaslik singari xarakter xislatlarini tarkib toptiradi.

Jamiyatimizda kam uchrasada, «anormal» munosabatga ega bo'lgan oilalar mavjuddir. Bunday toifaga ajralish darajasiga yetib borgan, bola oilaviy nizo manbai deb tushunuvchi, «bola» bahonasi tufayli qil ustida turgan, ichuvchi – alkogol yoki giyohvand oilalar kiradi. Oiladagi anormal holat osoyishta yashash, tinch ijod qilish, muayyan o'qish uchun zarur imkoniyatlar yaratib berishga qodir emas.

Oiladagi turmush munosabati ichida «leberal» toifa ham ko'zga tashlanib turadi. Oila davrasida murosasoz, ko'ngalchan bo'lishlik tashqi ko'rinishdan iliq psixologik iqlimni, guruhviy moslikni o'zida aks ettirgandek bo'lib tuyuladi. Agarda murosasozlik «murosa-yu madora» qabilida kechirimlilikni bildirib kelsa, yuqoridagi fikrimizni tasdiqlagan bo'ladi. Afsuski, «libsral»lik, murosasozlik oiladagi har qanday vaziyatni til topib hal qilishga, prinsipiiallikdan uzoqlashishga, subutsizlikka olib keladi. Ota-onalarning farzandlari bilan bunday munosabatda bo'lishlari salbiy oqibat sari yetaklaydi: qat'iylik, mustaqillik, dadillik va churtkesarlik singari irodaviy

sifatlar o'g'il-qizlar ruhiy dunyosidan uzoqlashadi. Murosasozlik ta'sirida yosh avlod xarakterida munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, kelishuvchanlik kabi illatlar tarkib topishi mumkin. Bu illatlar o'rinbosarlarimizning kelajak taqdirleri uchun o'ta xavflidir.

O'zbek oilasi boshqa xalqlar oilasidan ancha farq qiladi. Ko'pincha, o'zbeklar bir oilada bir nechta avlod a'zolari birga hamjihatlik bilan istiqomat qilishadi. Ana shundan kelib chiqqan holda uning tuzilishi murakkablashib boradi: buva va buvi (katta avlod vakillari), ota va ona (ikkinchi avlod namoyandalari), katta-kichik farzandlar (uchinchi bo'g'in a'zolari), nevara va evaralar (to'rtinchi avlodga mansublar) kabilar.

O'zbek oilasi ijtimoiy guruh, sifatida tarbiyaviy, xo'jalik yuritish, moliyaviy – iqtisodiy (ta'minot va taqsimot) faoliyat a'zolari o'rtasida to'g'ri muomala o'rnatish, bo'sh vaqt, hordiq kunlari hamda bayramlarni o'tkazish, tashkil etish, uyushtirish kabi tadbiriy-ma'muriy vazifalarni bajaradi. Shuningdek, oila ijtimoiy tarbiya o'chog'i tariqasida o'z a'zolari ruhiyati va ma'naviyatiga katta ta'sir o'tkazadi; ma'lumki, odamiylikning durdona urug'lari xuddi shu tor muhitda murg'ak qalbli bola tabiatiga sochiladi. Oilaviy munosabatlar turli negiz asosiga quriladi: iqtisodiy, mafkuraviy, his-tuyg'u, hissiyot, axloqiy-aqliy, qarindosh-urug'chilik, yaqinlik, do'stlik va birodarlik kabilar. O'z-o'zidan ma'lumki, oila qaysi toifaga mansubligidan qat'i nazar o'z a'zolari ongiga iqtisodiy, mafkuraviy, axloqiy, aqliy, irodaviy, hissiy jihatdan ta'sir o'tkazadi, ya'ni inson shaxsini shakllantirish vazifasini o'taydi. Oila a'zolarining dunyoqarashi, e'tiqodi, axloqiy xislatlari, yuksak insoniy his-tuyg'ulari, jamiyat va tabiatga munosabatlari xuddi mana shu tarbiya maskanida tarkib topa boshlaydi. Shuning uchun xalqimiz «Qo'sh uyasida ko'rganini qiladi» deb bejiz aytmaydi. Binobarin, inson tarbiyasining barcha jihatlari, tarkibiy qismlari farzandlar ruhiyati va ma'naviyati olamiga oila davrasidagi suhbatlarda, ugit-nasihatlarda, yaqqol xatti-harakatlar vositasida singdirib boriladi. Mehr-muhabbat, ahillik, kamtarlik, hotamtoylik, mehmondo'stlik singari milliy xislatlar oila bag'rida nish uradi va asta-sekin har bir oila a'zosining xulq-atvorida mujas-samlashadi. Inson zoti uchun zaruriyatga aylangan odamiylik xislatlari- odillik, oqillik, samimiylik, saxiylik, adolatlilik, kamtarlik,

tantilik, nazari tuqlik ham oilaviy tarbiya ta'siri natijasida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, inson butun umr davomida to'plagan insoniy durdonalarining aksariyat qismini xuddi shu bolalik yillarida to'playdi. Shu sababdan, oilaviy tarbiyaviy ta'sir umuminsoniyat barkamolligi negizi, qolgan ijtimoiy tarbiyaviy muassasalar esa axloqiy va aqliy tarakqiyot ustqurmasi vazifasini bajaradi, deb komil ishonch bilan aytish mumkin.

Oilaning o'ziga xos xo'jaligi (tomorqasi, hosil yetishtirish maydoni, dov-daraxtlari, parrandasi, chorva mollari va boshqalar) va uning byudjeti mavjuddir. Xo'jalik yuritish, asosan, oila boshlig'i tomonidan tuzilgan rejaga suyangan holda (bir necha bor muhokamalardan so'ng kuchga kirish ehtimoli mavjud) amalga oshiriladi. Ana shundan kelib chiqqan holda xo'jalik yuritishga ayrim tuzatishlar va o'zgarishlar kiritib boriladi. Yig'ishtirilgan mahsulot, olingan ish haqining yig'indisi oila jamg'armasini hosil qiladi va bu jamg'armadan sarishtali, o'z o'rnida foydalaniladi. Oila boshlig'i mavjud oilaviy jamg'armani hisob-kitob qilgandan keyin chiqimlar ro'yxatini va sarflanishi (qanday va nimalarga) mumkin bo'lgan sarmoyani ajrim qiladi. Ana shunday rejalashdan keyingina tug'ilgan kun, yubiley harajatlari, to'y va bayramlarni nishonlash, bayram sovg'alari to'g'risida oila a'zolariga ma'lumot beriladi. Oila a'zolari daromadga qarab daromad qilishlari maqsadga muvofikdir. O'rinsiz, tubsiz chiranishlar, isrofgarchiliklar oila iqtisodini singdirishga olib keladi. Iloji boricha, yosh bug'inni oila jamg'armasini saqlashga, undan tejab-tergab foydalanishga tayyorlab borish muhim ahamiyatga ega. Chunki tejamkorlik ijtimoiy noyob va nodir xislat hisoblanib, yaratish, asrash, avaylash orqali mahsulot va obidalarini kelgusi avlodga meros tariqasida qoldirishni o'zida aks ettiradi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, oilaviy munosabatlarda er-xotinning kasb-kori, ma'lumoti, bilim saviyasi muhim rol o'ynaydi. Er-xotinlar sanab o'tilgan mezonlar bo'yicha qanchalik o'zaro yaqin bo'lsa, shunchalik teng huquqlilik, sermuloqot, ichki birlik, yengil his qilish, sezish, fahmlash yuzaga keladi. Bu narsalar oila barqarorligi, mustahkamligi, barkamolliligini ta'minlaydi, o'zaro totuvlik, moslik, o'zaro tushunish hukm suradi.

Oilaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish hikmati – bu oila a'zolarining bo'sh vaqtini tashkil qilish, har bir shaxsning xususiyatidan kelib chiqqan holda rejalash, goho sayr uyushtirish, soya-salqin joylarga safarga chiqish, birgalikda oila davrasida madaniy xordiq chiqarish, xo'jalik yumushini bajarish va boshqalardir. Oila a'zolarining har biri teng huquqqa ega ekanligini nazarda tutish, shuning bilan birga o'ta erk berib yubormaslikni diqqat markazidan chiqarmaslik zarur. Bayram kunlarini nishonlash ham oqilona, odilona hal qilinishi oilada iliq ruhiy iqlimni vujudga keltiradi. Shunga qaramasdan, oilada hamisha hamjihatlik, ahillik hukm suravermaydi, goho ziddiyatlar, janjalli holatlar yuzaga kelib turadi. Lekin bu ziddiyatlarning mohiyatiga qarab tezroq bartaraf etish lozim. Oilaviy ziddiyat va janjallar axloqiy, moddiy, ma'naviy, aqliy, his-tuyg'u negizida vujudga kelishi mumkin. Hozirgi kunda janjallar ko'proq moddiy va ma'naviy ruhiy omillar zahiridan chiqib kelmoqda. Har bir inson mehnat qilib turmush kechirish imkoniyatiga ega, shuning uchun o'zgalarga tobe bo'lish hissi qarshilik qilish turtkisini namoyon qiladi.

Hozirgi davrda oila buzilishi hollari ko'payib bormoqda, tirik yetimlar safi ortmoqda, qarovsiz farzandlar ko'lami kengaymoqda. Bolalar uylari, yetimxonalar son-sanoqsiz norasidalarini qabul qilish imkoniyatiga ega emas, shuning uchun bu halokatning oldini olish ijtimoiy vazifadir. Xo'sh, qanday sabablar ajralish, qo'ydi-chiqdini keltirib chiqarmoqda? Ijtimoiy ruhiyat tadqiqotlarining ko'rsatishiga qaraganda, ajralish, oila buzilishining muayyan sabablari mavjuddir. Jumladan, *er-xotinning xarakter jihatdan mos tushmaganligi, farzand ko'rmaganligi, kelinning ma'naviy va jismoniy jihatdan haqoratlanganligi, oiladagi moddiy ta'minot, tarbiyaviy qashshoqlik, oilada ortiqcha an'ana va marosimlarning mavjudligi, ichkilikka ruju qo'yish, rashk, madaniy hordiq chiqarish imkoniyatining yo'qligi, qarindosh-urug'chilikdagi ko'ngilbo'zar ishlar, munosabatlar yosh oilaning barbod bo'lishiga olib keladi.*

Xo'sh, buning oldini olish imkoniyatlari bormi? Albatta, bor. Oila but bo'lishi uchun birinchi navbatda, shaxslararo tenglikni qaror toptirish kerak. Ikki yosh, ya'ni bo'lg'usi kuyov-qayliqlar bir-birlarini chuqurroq o'rganishlari, ayrim

nuqsonlardan ko'z yumishlari zarur. Eng asosiy narsa — bu ikki yosh qalb o'rtasida chin muhabbat bo'lishi darkor. Sevgi, ishq tug'yonlari insonga kuch-quvvat bag'ishlaydi, poklik sari yetaklaydi. Sun'iy o'ylab topilgan eski marosimlarni turmush tarzidan quvib chiqarish zarur. Oilada mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish (ba'zan og'irliklar kelin zimmasiga yuklatiladi) ayni muddaodir. Ichkilikbozlikka, o'g'irlikka, bekorchilikka, haromtamoqlikka qarshi o't ochish, tartibli kurash olib borish shart. Yoshlarni qiyinchilikni yengishga, o'zgacha shart-sharoitga ko'nikishga bolalikdan o'rgatib borish lozim va hokazo.

Hozirgi davrda jamoatchilikni quyidagi dolzarb muammolar tashvishga solmoqda. *Oilada o'g'il-qizlar kimlar tomonidan tarbiyalanayotirlar va ular qanday ruhda, maromda tarbiya olmoqdalar? Oilaning tarbiya ishi rejali va tartibli olib boriladimi? Ta'lim oluvchilar ko'z o'ngida ota-ona, katta yoshdagi qarindosh-urug'lar, tug'ishganlar qanday darajadagi obro'ga egalar? Oila tarbiyasida ota-ona o'rtasida birlik, umumiylik mavjudmi? Ta'lim muassasalarda qo'llanilayotgan axloqiy tarbiya vositalari va shakllari qanday tadbiiq etilmoqda? Oilada rag'batlantirish va jazolash metodlaridan qay yo'sinda foydalanilmoqda va shu kabilar.* Shuningdek, shaxslararo munosabatlarda oila a'zolarining asab sistemasi (uning kuchi, muvozanati, ildamligi, beqarorligi) temperamenti (uning xolerik, sangvinik, flegmatik toifalari), g'oyaviy maslagi (uning qiziqishi, his-tuyg'usi, ideali, e'tiqodi, dunyoqarashi, shaxsiy pozisiyasi), axloqiy xislati, diqqati (uning kuchi, tarqoqligi, parishonxotirligi, ziyrakligi), xotirasi, irodasi (mustaqilligi, qatiyligi, dadilligi, mard-qo'rqmasligi), nutqi (mazmunli, mantiqli, ohangi, sur'ati, dag'al va yumshoqligi), emosional ichki kechinmalari (kayfiyati, ehtirosi, zo'riqishi, jo'shqinligi, qursligi, achchiqlanishi, xursandligi) kabi ruhiyat va ma'naviyat jihatlarini hisobga olgan holda joriy qilish muammolari ham kishilarni juda qiziqtiradi.

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tuzilishini taxminan ushbu tarzda tushuntirib bersa bo'ladi:

- 1) buva va buvi hamda oilaning qolgan barcha a'zolari aloqasi;
- 2) ota-onaning o'zaro munosabatlari;
- 3) ota-ona va farzandlar orasidagi muloqot;

- 4) farzandlarning o'zaro munosabatlari tartibi;
- 5) kelinning barcha oila a'zolari bilan munosabatlari;
- 6) kelinlarning (ovsinlar) o'zaro muloqot qilishlari kabilar.

Teng huquqli oila a'zolari o'zaro inoq va ittifoq bo'lib turmush kechirishlari uchun keksalar ruhiyati er-xotinlar ruhiyati va ma'naviyatidan, turli yoshdagi o'g'il-qizlarning ruhiy xususiyatlaridan (chaqaloqlik, go'daklik, bolalik, kichik maktab o'quvchisi, o'smirlik, o'spirinlik) muayyan ko'lamda bilimga ega bo'lishlari shart.

Vatanimiz psixologlari va sosiologlarining tekshirishlariga qaraganda, **oilaviy tarbiya kamchiliklari** turli-tuman ekanligi dalillab ko'rsatilgan, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar hamda ildizlar ochib berilgan:

- 1) bolalarga kattalar tomonidan diqqat-e'tiborning yetishmasligi;
- 2) farzandlar bilan muloqotga kirishish istagining mavjud emasligi yoki xohishning yo'qligi;
- 3) ota-onalar bilan farzandlar o'rtasida o'zaro tushunishning yo'qligi va unga ikki tomonlama intilishning yetishmasligi;
- 4) ota-onalarning o'g'il va qizlarga nisbatan qo'pol muomalada bo'lishlari;
- 5) ko'r-ko'rona otalik va onalik mehr-muhabbatining hukm surishligi va uning barqaror ahamiyat kasb etmasligi;
- 6) oila davrasida, muhitida doimiy janjallarning qaror topganligi va ularni kamaytirish uchun intilishning yo'qligi;
- 7) ota-onalarning beqaror his-tuyg'ulari, kayfiyatlari, ularning tartibsiz, tasodifiy xarakterga ega bo'lishligi;
- 8) ota-onalarning shaxsiy qiziqishlarining o'zaro mos tushmasligi va tubdan bir-biriga qarama-qarshiligi;
- 9) katta-kichik yoshdagi farzandlar davrasida ota-onalarning salbiy xulq-atvorlari hamda ularning ichkilikbozliklari, chekishlari, giyohvandligi, intim qiliqlari;
- 10) ota va ona o'rtasidagi o'zaro tushunmovchiliklarning surunkasiga davom etib turishi;

11) oila muhitida adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik, o'g'rilik, tovlamachilik, poraxo'rlik illatlarining namoyon bo'lishi;

12) oila turmushining to'ralarcha qonun-qoidasi — shaxsiy manfaatdorlikka ruju qo'yilganligi;

13) ota-onalarning bilim saviyalari va madaniy darajalarining past ekanligi;

14) oilada yaxshi an'analar, rasm-rusmlar, urf-odatlarining yo'qligi va ma'lum qolipdagi salbiy xatti-harakatlarga rioya qilinishi, ijtimoiy muhitdan tubdan ajralib qolishligi, loqaydlik kabi qator kamchiliklar va illatlar o'g'il-qizlarni oqilona tarbiyalashga xalal beradi, ko'zlangan maqsad sari intilishga g'ov bo'ladi.

Allomalarimiz ta'kidlaganidsk, insonni tarbiyalashdagi eng asosiy yo'l — e'tiqoddir, e'tiqodga esa ishontirish yo'li bilangina ta'sir etish mumkin, xolos. Tarbiya ishining muvaffaqiyatli chiqishi uchun tarbiyachilar tinmay o'zlarini tarbiyalashlari kerak.

Faqat ana shu yo'llar bilangina yuqorida ko'rsatib o'tilgan oila tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf qilish mumkin. Mazkur mas'uliyatli burchni bajarish uchun ota-onalar o'z ustilarida ko'proq ishlashlari va tarbiya vositalarini takomillashtirishga intilishlari zarur.

2. Oilaviy shaxslararo munosabatlarning bola tarbiyasiga ta'siri

Jamiyatimiz taraqqiyoti munosabati bilan oila, uning barcha hayotiy bosqichlari jiddiy o'zgarishlarga uchramoqda. Millatning tarixiy, milliy va regional xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zbek oilalari taraqqiyotini umumiy va xususiy taraqqiyotlar asosida oilaviy tarbiyani maqsadga muvofiq yaxshilash lozim. Bu davlatning oilada yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish jarayoniga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalardan biridir.

Oilaviy tarbiya deganda ota– onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari asosida bola shaxsida dunyoqarash asoslari, siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida muntazam, izchil, g'oyaviy va ma'naviy ta'sir ko'rsatish jarayoni tushuniladi. O'zbek olimlari tomonidan olib borilgan ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston sharoitida oilaviy tarbiya, uning mazmuni va tashkil etilishi, oila va o'quv muassasalarining boshqa bo'g'inlariga ta'sir etuvchi o'ziga xos bir qancha ijtimoiy hamda tarbiyalash shart – sharoitlari mavjud bo'lib, ularni hisobga olmay ilojimiz yo'q.

Bulardan biri respublikamizning iqtisodiy sharoiti, iqlimi, tabiatning o'ziga xos xususiyatlari har bir o'zbek oilasining iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishiga, oilaviy hayot sharoitining o'zgarishiga, binobarin, oiladagi bolalar tarbiyasiga sezilarli ta'sir etmoqda. Ikkinchidan, respublikamiz o'zining demografik, etnik, milliy shart – sharoitlari jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega, bular aholining zich joylashishi va uning intensiv ko'payishidir. Uchinchidan, respublikamizning ma'naviy hayoti va uning o'ziga xos tomonlari muttasil rivojlanmoqda, ularning oilaviy tarbiyaga ta'siri kuchaymoqda.

Axloqiy tarbiyani izchil va tartibli amalga oshirishda oila muhiti g'oyat muhim rol o'ynaydi. Inson axloqiy, ma'naviy va ruhiy qiyofasining poydevori oilada qo'yiladi. Shuning uchun ham mashhur allomalar oila tarbiyasiga katta e'tibor berishgan hamda shu masalaga bag'ishlab qator qimmatli asarlar yozishgan. Dono xalqimiz «Bola — boshidan, nihol — yoshidan» degan naqlni bejiz aytmagan. Modomiki shunday ekan, yosh avlodni tarkib toptirish, tarbiyalash ishini yoshlikdan, oiladan boshlash kerak. Bi-nobarin, oiladagi tarbiya jarayonida har bir daqiqa va fursatni qo'ldan boy berish orqali ota-onalar keyinchalik ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladilar. Axir, noto'g'ri tarbiya tufayli nafs balosi o'qiga giriftor bo'lgan o'n gulidan bir guli ham ochilmay turib umri xazon bo'lgan yoshlar kammi? Donishmand tili bilan aytganda, «Qapg'a ochlik, tashnalikning qiyinchiligini sezsa, muzni teshadi; bekinib turgan ovchini ko'rmay, uning tuzog'idagi donlar uchun parvo qilmay kiravsradi» (*M.Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk, Toshksnt, 1960, 401-bet.*).

O'zbek xalqining ko'p asrlik boy madaniyati va tarixi bor. Mazkur madaniy meros jamiyatdagi jamiki ma'naviy boyliklarni o'z ichiga qamrab oladi. Ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari pedagogikasi, ma'naviy-madaniy tarixi boy merosga ega bo'lib, ularning mohiyati, mazmuni xalq ijodiyotida, ilg'or mutafakkirlarning asarlarida aks etgan. Xususan, jumhuriyatimiz xalqlarining pedagogika va ruhshunoslik fanlari buyicha merosini o'rganish ishlari hali o'zining ko'pgina tadqiqotchilarini kutib turibdi. Hatto bir necha asrlar ilgari At-Termiziy, Ismoil Buxoriy kabi allomalarning inson ma'naviy olamini boyitadigan durdona yodgorliklari, xususan, «Qur'oni karim» mazmunini yoritadigan hadislar majmuasi musulmon olamining hayotbaxsh oftobidir.

Ma'lumki, yosh avlodga maqsadga muvofiq tarbiya berish uchun ota-onalar ham tarbiyaning vazifasi, maqsadi, vositalari, shart-sharoitlari yuzasidan har tomonlama bilimga ega bo'lishlari, farzandlarining yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ish yuritishlari lozim.

O'zbek oilasida bola tarbiyalashning ishontirish, tushuntirish, nasihat, ibratnamuna ko'rsatish, yaxshi fazilatlarini mashq qilish, rag'batlantirish, tanbeh berish, ogohlantirish, jazolash kabi usullari qo'llaniladi.

Oilada bola tarbiyasining o'ziga xos qoidalar mavjud bo'lib ota-onalar ulardan o'rinli foydalanishlari lozim. Xususan, ular quyidagicha:

- 1) oilada hissiy moslik, ruhiy xotirjamlik va iliq iqlim yaratish;
- 2) ota-ona obro'sini saqlash;
- 3) tarbiyada ota-ona, kattalar o'rtasida talabchanlik birligi;
- 4) bola shaxsini mehnatda tarbiyalash;
- 5) oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi;
- 6) bolani sevish va izzat qilish;
- 7) oilada qat'iy rejim va kun tartibi o'rnatish;
- 8) tarbiyada bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;
- 9) bola tarakqiyotini aniqlab borish;
- 10) bolada mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini hosil etish va boshqalar.

Oilaning ma'naviy dunyosini takomillashtirish uchun unda zarur ruhiy xotirjamlik, ibratli ruhiy munosabat, o'zaro totuvlik yaratilgan bo'lishi zarur. Ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatda hamjihatlik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, shirinsuxanlik, bir-biriga g'amxo'rlik mavjud bo'lsa, bunday muomala, munosabat bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Ular o'z farzandlariga chinakam baxt, quvonch hadya etadilar.

Oila a'zolarining did-farosati, qiziqishi, mayllari, ehtiyojlari, intilishlari o'zaro bir-biriga munosib bo'lsa, onaning inoq, ahil turmush kechirishlariga, oilaviy munosabatlarning mustahkam bo'lishiga puxta zamin hozirlaydi. Muayyan darajada shart-sharoitlarning mavjudligi, ota-onaning o'zaro birlarini tushunib turmush kechirishlari, maqsad va vazifalardagi birlik, yuzaga keladigai ziddiyatlarni birgalikda bartaraf eta olishlari mustahkam oila muhitini shakllantiradi.

O'zbek oilalarining aksariyati o'zining serfarzandligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, ota-onaning xoh o'g'il, xoh qiz, xoh to'ng'ich, xoh kenja farzand bo'lmasin, ularga teng va odil munosabatda bo'lishi, erkalatmasligi, kattalar namunasi orqali kichiklarni tarbiyalash ijobiy hodisadir.

Kam bolali oilalarda ota-onalar farzandlarini ortiqcha erkalaydilar — bola oilaning tanho ovunchog'iga aylanib qoladi. Natijada shunday o'g'il yoki qizlar erka, o'jar, tantiq, shaxsiyatparast bo'lib voyaga yetishi mumkin.

Oilada qat'iy intizom va kun tartibining bo'lishi bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Bolalarning bilim olishdagi yutug'i, axloqi, salomatlik darajasi ko'p jihatdan oilada qaror toptirilgan oqilona rejimga bog'liq. Shuning uchun ota-onalarning o'zlari ham bu borada ibrat ko'rsatishlari, oqilona tuzilgan oila rejimiga qat'iy amal qilishlari, farzandlarga ham o'rgatishlari darkor. Bu narsa, ayniqsa, qiz bolalar tarbiyasi uchun juda zarurdir. Chunki u katta bo'lgach, nihol kabi boshqa uyga ko'chib o'tadi — oila quradi.

Oila- bu o'ziga xos xo'jalik bo'lib, uning turmush kechirish, muammolari mavjud. Ota-onalar oila a'zolarining amaliy faoliyatlarini uyushtiradi, ularning ovqatlanish, ta'lim olish, ishlash, dam olish, kiyim-bosh bilan ta'minlash kabi kundalik rejimini tashkil qiladi; farzandni bolaligidan boshlab mehnatga, mustaqillikka, shaxslararo ibratli munosabatga o'rgata boradi.

Bola tarbiyasi ota-onalardan maxsus pedagogika va psixologiya bo'yicha bilimlar, alohida ko'nikmalar bo'lishini qat'iy ravishda talab qilmasada, doimiy yuz berayotgan tarbiya muammolarini to'g'ri hal qilish ustida fikr yuritishni taqozo etadi.

Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud Axloq» kitobida quyidagi ibratli ugitlarni aytgan edi: «Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlantirmak, zehnimizni ravshanlashtirmak lozim»

Bola ota-onaning og'ushidan, iliq nafasidan, qalb haroratidan bahra olib o'sadi. Olam sirlarini farzand dastavval o'zining nuri-diydalaridan o'rganadi. Shuning uchun ota-onani birinchi tarbiyachi muallim deyishadi.

Oilada farzand tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning ma'naviy olamida e'tiqodni shakllantirishdir. Bunga bolani faqat ishontirish yo'li bilan erishish mumkin. Shuning uchun ota-ona o'g'il-qizlarni tarbiyalashda ularni

qo'rqitishda yoki asossiz buyruq berishga tayanmasdan ish tutishi kerak. Xo'sh, ota-ona obro'si bolada qachon paydo bo'ladi?

Turmush tajribalaridan shu narsa ma'lumki, ota-onaning obro'si davlat va oila a'zolari oldida javobgarlikni his qilishdan boshlanadi. Agar ota-ona o'z ishi, o'z burchi uchun javobgar ekanligini his qilsa va unga amal qila olsa, bu ularning obro'sidir. Ular o'zlarining xulqida, xatti-harakatlarida bularga rioya qilsalar, yetarli obro' qozona oladilar.

Ota va ona obro'si butun hayot davomida kundalik ibratli xulqi, axloqi, intizomi, kamtarligi, ishbilarmonligi bilangina qo'lga kiritiladi. Ibrat-namuna, zahmat, chin ezgu-niyat evaziga yuzaga kelgan obro' haqiqiy obro' hisoblanadi. U farzandlar diqqat-e'tiboriga mehr-muhabbat bilan yo'g'riladi. Natijada oila a'zolari totuv, osoyishta, inoq, hayot kechiradilar; oilada farzandlar orzu qilguday, zamona ruhiga mos tarbiya oladilar. Ular ota-onalari bilan behad faxrlanadilar va shu tuyg'u bilan yashaydilar. Bu o'z navbatida, yoshlarda kelajak hayoti uchun, turmush uchun ibratli axloq ko'nikmalarini tarkib toptiradi.

Ba'zi ota-onalar borki, ular bolalar, oila a'zolari o'rtasida kalondimog'lik, serzardalik, badjahllik, o'zini o'ta og'irkarvon tutish, «donishmand» qilib ko'rsatish yo'li bilan obro' orttirmoqchi bo'ladilar.

Oilada ayrim ota-onalar tazyiq etish yuli bilan farzandlari o'rtasida obro' orttirishni xohlaydilar. Bunda ular qo'rqitish, noo'rin buyruq berish, tazyiq o'tkazish usullarini qo'llashadi. Ular zaharxandalik va badjahllikni tarbiya vositasi dsb hisoblaydilar. Qo'rqinch asosida bolada vujudga kelgan «bo'ysunish»ni ular o'zlaricha obro' deb tushunadilar.

Ba'zi ota-onalar farzandlari bilan kamroq muloqotda bo'lish, ulardan o'zlarini nariroq olib yurish bilan obro' orttirishni o'ylashadi. Ularning nazarida, guyo farzand bilan qancha kam uchrashilsa, shuncha ko'proq obro' qozonish mumkin. Bu mutlaqo noto'g'ri tushuncha, ota-ona o'z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo'lsa, ular o'rtasida begonalashish, loqayd bo'lish holatlari kelib chiqadi.

Ayrim ota-onalar bola bilan faqat rasmiyatchilik orqali obro' orttirishga harakat qilishadi, xolos. Bunda ular qildan qiyik, qidirishadi, bolaga tanbex, berishadi, uning barcha xatti-harakatlarini cheklab qo'yishadi, bo'lar-bo'lmasga jerkib, siltalab tashlashadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, farzandlarga ortiqcha pand-nasihat qilaverish yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunonchi, ba'zi ota-onalar arzimagan maydachuyda masala bo'yicha ham uzundan-uzoq ugit-nasihat qiladilar, o'zlarining nasihatguyligini burch deb hisoblaydilar. Maydagaplik, ezmalik bilan o'g'il-qizlar o'rtasida obro' qozonib bo'lmaydi.

Turmushda shunday ota va onalar ham uchraydiki, ular soxta yaxshilik qilish orqali farzandlari oldida obro' orttirmoqchi bo'ladilar. Bunday ota-onalar o'zlarining yumshoq muomalaligi, beozorligi, kechiruvchanligi, yon beruvchanligi, kam talabchanligi bilan farzandlarni o'zlariga rom qilib olishni istaydilar. Ularda na qat'iyatlilik, na talabchanlik, na barqarorlik mavjud. Unutmaylikki, tilyog'lamalik, soxtalik, sun'iylik bilan bolani yaxshi yo'lga solib va uning oldida obro' qozonib bo'lmaydi.

Ota-ona obro'sini orttirishda, eng avvalo, ibrat-namuna muhim rol o'ynaydi. Oilada tarbiya ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ota-ona tinmay o'zlarini tarbiyalab borishlari kerak. O'zlarida yetishmaydigan sifat va fazilatlarni to'ldirib, mavjud illatlarni batamom tugatishlari lozim. Chunki ota-onalarning tarbiya jarayonidagi ists'dodi — bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sadoqatdan iboratdir.

Ota-ona farzandlar o'rtasida obro'ga ega bo'lishlari uchun qator chora va tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Dastavval ular turli yoshdagi farzandlari ruhiy dunyosiga mos muomala qilishlari darkor. Kichik, o'rta va katta yoshdagi o'g'il-qizlar bilan muloqotda ularning yosh xususiyatlariga mos muomalada bo'lish shart.

Ota-onalar farzandlari davrasida obro' orttirish uchun ularning ruhiy dunyosiga asta-sskin kirib borishlari ayni muddaodir. Chunki bolalar ota-onalar qalbiga yaqinlashish uchun kichkintoylar «ot-ot» o'ynashni, o'rta yoshdagilar musobaqalashishni yoki bellashishni, kichik yoshdagi o'quvchi bolalar esa ertaklar

olamiga kirishni, o'spirinlar oilaviy, ijtimoiy masalalar yuzasidan munozara yuritishni yoqtiradilar. Chin obro'ga ega bo'lmoqchi bo'lgan har bir ota-ona qimmatli vaqtlarini o'z farzandlaridan hyech ayamaskliklari kerak. Bolalar ruhiy dunyosiga kirish bachkanalik emas, balki tarbiya vositasidir. Farzandlarning talab va ehtiyojlarini oqilona qondirib borish ularni bir-birlariga tobora yaqinlashtiradi, obro'lariga obro' qo'shadi.

Oila davrasida ota-onalarning kuzatuvchanligi, sezgirliги va hozirjavoblighi muhim ahamiyatga ega. Mayda-chuyda narsalar ham diqqat-e'tibordan chetda qolmasligi, ularga shaxsiy fikr-mulohazalar bildirishlari farzandni hushyor torttiradi. Ular o'zlarining nuridiydalarida bunday ajoyib xislatlarning mavjudligidan cheksiz quvonadilar.

Ota-onalarning odilona me'yorli talabchanligi obro' orttirishning eng muhim yullaridan biridir. Farzandlarning kuchiga, qobiliyatiga, qiziqishiga binoan aqliy va jismoniy topshiriqlar berilishi va o'z vaqtida ularning natijasini tekshirish bolalarda qat'iyatlikni vujudga keltiradi, natijada katta yoshdagilarga nisbatan ularda ixlos ortadi. Ixlos, hurmat, obro'ning uzviy zanjiri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun unga alohida e'tibor berish farzand kamoloti uchun muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ota-onalarning samimiylighi va g'amxo'rliги ularga katta obru keltirishi mumkin. Ulardagi samimiylighi, g'amxo'rliг fazilatlarighi farzandlar yuragida uchmas iz qoldirib, to'g'ri yo'l topa oladi. Ularning ibratli xarakter xislatlarighi bolalar qalbida kelgusi orzu-umidlari gulshani sifatida katta rol o'ynaydi; binobarin, ularga nisbatan ishonch, intilish, moyillik kabi istiqbol sifatlarighi vujudga kela boshlaydi. Ota-ona obro'si ortishi uchun ularda ma'naviy qiyofa, axloqiy baynalmilallighi, go'zallikka qarashlarighi, barqaror e'tiqod bo'lmog'i zarur.

Oilada totuvlikning mavjud bo'lishi barcha muvaffaqiyatlarning garovidir. Chunki oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan munosabatlari kelajak avlodning qanday shaxs bo'lib voyaga yetishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xo'sh, oila quchog'ida qanday munosabat vujudga kelganda unda totuvlik, bir-birlarini tushunish holati hukm suradi?

Farzandlarning ruhiy xususiyatlaridan qariyalar, tajribali ota-onalar o'z turmush tajribalari orqali bir oz bo'lsada xabardorlar. Lekin ulardagi bilimlar ruhiyat qonuniyatlariga, bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlariga asoslanmagan bo'ladi. Shu tufayli qariyalar yoki katta yoshdagi kishilar bilan bolalar o'rtasida «anglashilmovchilik g'ovi» vujudga keladi. Bunday munosabatni tubdan o'zgartirish lozim. Bu narsani o'zgartirish uchun ularni psixologiya va pedagogika hakidagi bilimlar bilan muayyan darajada qurollantirish kerak.

O'z-o'zidan ma'lumki, bolalarning ruhiy xususiyatlarini qariyalarga hamda katta yoshdagilarga tanishtirish oilada totuvlik, hamjihatlik, iliq ruhiy iqlimni barpo qiladi. Bolalarning katta yoshdagilarga va qariyalarga bo'lgan iliq munosabati, mehr-muhabbati, namuna-timsol yoki maslak sifatida qarashi va boshqa jarayonlar orqali o'zaro tushunuv namoyon bo'ladi. Farzandlarga nisbatan qilingan yumshoq yoki qo'pol muomala ularning ruhiy dunyosida ijobiy yoki salbiy taassurot qoldiradi. Kishi kayfiyati yo ko'tariladi yoki mutlaqo buziladi.

Qariyalar va ota-onalar farzandlarining fe'l-atvori va xulqini, qobiliyati va qiziqishini, umuman olganda, ularning ruhiy dunyosini chuqur bilgan taqdirdagina oilada normal (mu'tadil) ruhiy iliq iqlim mavjud bo'lishi mumkin.

Kichik yoshdagi bolalar maktab ostonasiga oyoq bosishi bilan o'yin faoliyati o'rnini o'qish faoliyati egallay boshlaydi. Ba'zan ular qiyinchiliklar oldida bardosh bera olmay injiqlik qiladilar. Bunday holatning oldini olish uchun uni erkalatmaslik, hamisha qo'ygan talabini qattiqqo'llik bilan amalga oshiravermaslik darkor. Uning o'rniga yo'l-yo'riq ko'rsatish, tushuntirish ishlarini olib borish maqsadga muvofiq. Faqat ana shundagina unda irodaviy sifatlar shakllanadi.

Bunday yoshdagi bolalarga oilada talab bir xil bo'lishi yaxshi natija beradi. Ularning talab va istaklarini dalillar asosida tushuntirishga harakat qilish, noto'g'ri yoki qalbaki axborotlar berishdan saqlanish kerak. Yolg'on javob berish orqali otalarning farzand oldida obro'si pasayadi, chunki ular uyda olingan javob bilan o'qituvchisining javobini solishtiradilar va shu asnoda kim xaq yoki kim nohaq ekanligini aniqlaydilar. Ular uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi donishmand, bilimdon, ishbilarmon shaxs roliga namoyon bo'ladi.

Oilada kattalar obro'si qo'rqitish asosida vujudga kelmasdan, balki samimiylilik ila hurmat zamiriga qurilishi maqsadga muvofiqdir. Oila a'zolarining inoqligi, xatti-harakati, kiyinishi, mehnat faoliyati, o'zga kishilar to'g'risidagi suhbatlari va ularning boshqa sifat hamda fazilatlari bolaning murg'ak tasavvuriga yangi timsollarni olib kiradi. Kichik yoshdagi bolalar tarbiyaga beriluvchan hamda kattalarga ishonuvchan bo'ladilar. Ota-onalar ularning bu xususiyatlarini inobatga olgan holda muloqotda bo'lsalar, oilada totuvlik qaror topadi. Shu fazilatlar bola ongiga singib boradi va u kelajakda axloqan sog'lom o'smir bo'lib yetishadi.

O'smirlik davrida (11—15 yoshlar) bolalarning ruhiy dunyosida katta o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlarga qator sabablar ta'sir qiladi. Jumladan, uning biologik jihatdan taraqqiyoti, jinsiy o'sishi, pedagogik jamoa ko'lamining kengayishi, qurshab olgan muhit ta'siri va boshqa omillar. Ana shu omillar ta'siri natijasida uning ruhiyatida keskin burilish yasaladi. Shuning uchun maktabda, oilada va kucha-kuyda o'zini tutishi o'zgaradi; axloqiy masalalarga qarashi boshqacharoq tus oladi. Xuddi shu davrda o'smirlarda shaxsiy fikrini ma'qullash, boshqalar fikriga tanqidiy munosabatda bo'lish, kamchiliklariga o'z vaqtida iqror bo'lmaslik, o'jarlik, o'zbilarmonlik, o'zini kattalardek his etish kabi xususiyatlar ko'zga tashlana boshlaydi.

Ota-onalar o'smirlar bilan muloqotga kirishishda ularning izzat-nafsiga tegmasligi hamda kalaka qilmasligi zarur. U holda ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbat, samimiy hurmat o'rini nafrat, hasad egallashi mumkin. Hamisha ularga haqiqatni silliq muomala orqali tushuntirish darkor: «O'g'lim, ug'it-kengashimni qulogingga ol, bilimsizlikni tashla. Kimning talqoni bo'lsa, shinniga qoradi. Shuningdek, aqlli kishi nasihatni qabul qiladi» (*M. Koshg'ariy, Devonu lug'atit turk, I tom, Toshkent, 1960, 413-bet.*) qabilida gapiriladi.

O'smirlarning jinsiy tarbiyasiga rahnamolik qilishi ota-onalarni farzandlarga yanada yaqinlashtiradi. Ota-onalar ularning murabbiysi, maslahatgo'yi, sirdoshi ro'ida hayot maydoniga o'tilib chiqadilar. O'smirlarning yurish-turishi, mehr-oqibati, aqliy kamoloti turlicha bo'ladi. Shuning uchun ular bilan muomala qilishda shaxsiy

xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutilsa, oilada o'zaro tushunish, totuvlik, hamjihatlik, ruhiy moslik vujudga keladi. Bu yerda otaning onaga yoki aksincha, birlariga qilgan munosabatlari ham shu iqlim shart-sharoitlariga tubdan mos tushishi shart. Chunki ota-onaning o'zaro totuv hayot kechirishi oilaning tarkib topishi borasidagi asosiy omildir. Xalqimiz shuning uchun ham «eru xotin qo'sh ho'kiz» deb aytishgan.

O'spirinlar (16—18 yoshlar) o'zlarining ruhiy xususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar. Ular ham jinsiy, ham jismoniy, ham aqliy jihatdan voyaga yetgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi, o'z-o'zini boshqarishi kabi yetuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo'ladi. Shu tufayli ular vazmin, mulohazali bo'ladilar, katta yoshdagilarga hurmat-ehtirom bilan qaraydilar. Ular uzoqni ko'zlaydigan, kelajak uchun qayg'uradigan, ota-onalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. Shuning uchun ota-onalar o'spirin farzandlari bilan maslahatlashib ish tutishlari, didlariga, mulohazalriga quloq solishlari, umuman ularning ra'yiga qarashlari, ko'p o'rinda hisoblashishlari lozim.

Ba'zan o'spirinlar ichida tarbiyasi qiyinlar ham uchraydi. Ota-onalar ularga nisbatan boshqacharoq yo'l tutishlari, nopok yo'llarga boshlovchi sabablarni aniqlashi hamda unday illatlarga qarshi kurash olib borishlari shart. Agar oiladagi ruhiy iqlimga hadeb salbiy ta'sir etaversa, u holda pedagogika jamoasiga va jamoatchilikka murojaat qilgan ma'qul. Vaholanki, o'zbek xalqida, bir bolaga yetti mahalla otalik qiladi degan gan bor, bu bejiz emas.

O'spirinlarda insoniyat uchun eng muqaddas, nozik tuyg'u — muhabbat kurtagi paydo bo'ladi. Shu tuyg'u qalbini qamrab olishi tufayli uning ruhiy dunyosida ayrim o'zgarishlar yuz beradi. Ota-ona farzandlarining bunday tuyg'usidan xabardor bo'lishi, ruhan tetiklashishi, maslahatlar berishi, namunalar keltirishi zarur. Ular bilan muomala qilish davomida sevgi, muhabbat, oshiqlik kabi so'zlarni ehtiyot bo'lib ishlatishlari, endigina o'sib kelayotgan tuyg'usiga bolta urmasliklari lozim.

Odatda o'spirinlarda kiyinish, yurish-turishda haddan tashqari bachkanalik hollari uchrab turadi. Bunday paytda ota-onalar majbur qilish, haqoratlash, izzat-nafsiga tegish yuli bilan emas, balki ularga samimiy suhbat orqali tushuntirishlari,

ta'sir etishlari, «Satang sovuqda qotibdi» kabi iboralarning mag'zini chaqib berishlari yaxshi samara beradi.

O'spirinlarga kasb tanlashda to'g'ri yo'llanma berish ularning qiziqishlarini e'tiborga olishlari lozim. Ayrim ota-onalar farzandlarining mayliga, intilishiga, ra'yiga qaramasdan oliy o'quv yurtlariga majburan kirib o'qishni tavsiya qiladilar. Ko'pincha o'z kasbini seva olmagan yigit yoki qiz o'quv dargohini tashlab ketadi. Bunday ko'ngilsiz hol oila tinchligini buzadi, farzandlar bilan katta yoshdagilar o'rtasida ko'ngilsiz voqyealar sodir bo'ladi. Shuning uchun, takror aytamizki, ota-onalar farzandlarining kasb tanlashida hisoblashishni sira unutmasliklari kerak.

Oiladagi ruhiy iqlim, totuvlik hamisha barqaror bo'lishi uchun qariyalar, ota-onalar o'z farzandlarining ruhiy dunyosini bilishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib ish tutishlari maqsadga muvofiqdir. Farzandlar har qachong vaqtda ham oilada o'zidan kattalarga hurmat bilan qarashi kerak.

Shu o'rinda aytish kerakki, ota-ona bolaga hunar tanlashida yordam berib, shu hunarda obro' topgan, barakali mehnat qilgan kishining qo'liga shogirdlikka berishi kerak. Bizga ustoz-shogirdlikning natijasi ma'lum. Ustoz otangdan ulug', deydi dono xalqimiz.

Oila tarbiyasi jarayonida bolalar ongiga singdiriladigan axloqiy qoidalar, urf-odatlar, an'analarga rioya qilish yo'l-yo'rig'i zerikarli, quruq nasihatguylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Aksincha, eng yaxshi omillardan biri—aniq hayotiy omillarni tahlil qilish orqali to'g'ri tushuncha va tasavvurlarni hosil qilishdir. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun hayotiy misollardan, badiiy adabiyot materiallari, mashhur kishilar haqidagi, xotiralar, esdaliklar va ularning tarjimai hollaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

Oilada mehnat taqsimotini to'g'ri va adolatli amalga oshirish farzandlarda har xil ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish mehnatsevarlik hislatini vujudga keltiradi. Mehnat ulushlarini o'g'il-qizlarning yoshiga, kuchiga, didiga, qobiliyati va qiziqishiga mos ravishda taqsimlash ularda kundalik ehtiyoj, zaruriyat hissini tug'dirish bilan birga mas'uliyat degan odob xislatini ham barqarorlashtiradi.

3. Er-xotin orasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar

Ishonmaslik

Oilaviy hayotda ishonmaslik ikki ko'rinishda o'zini namoyon qiladi. Birinchidan, o'z turmush o'rtog'iga ishonmaslik, uni qizg'onish, uni rashq qilish, uning har bir qadamini nazorat qilishga intilish. Ikkinchidan, o'z kuchi, o'z mavqeyi, o'z harakatlari va qarorlarining to'g'riligiga ishonmaslik. O'zbek oilalarida rashk qiluvchilar sifatida ayollar ham, erkaklar ham namoyon bo'lishi mumkin. Ammo ayollar rashki bezarardek ko'rinadi. Chunki ayollar rashkining asl kuchi baribir ayollar ko'nglining eng tubida kechadi, ularda juda katta qalb g'alayoni ko'tariladi-yu, aslan erkak o'zini oilada qolish niyati bilan tutsa, ko'pincha ayollar erkaklarning "chet"ga yurishiga sabr-qanoat bilan qarashadi. Ayollar rashki uchun erkaklar ham ko'pincha sabab yaratib berishadi. Ayollar rashki besabab yuzaga kelmaydi. Shu bois, ayollar ichida patologik rashkchilar kam uchraydi. Ammo erkaklar rashki ko'pincha besabab yuzaga keladi. Ular ichida patologik rashkchilar ko'proq uchraydi. Ular xotinlari kun bo'yi uyda o'tirgan bo'lsa ham, xotinlarini rashk qilishga ulgurishadi. Shu bilan birga, jismoniy jihatdan rashq qilish bilan birga, boshqa tomonning mavqeyi, nufuzi, muvaffaqiyatiga rashk qilish hollari uchrab turadi. Agar erkak kishi ko'tarilayotgan, karyerasi yaxshi ketayotgan bo'lsa, u o'z xotinidan uni qo'llab quvvatlashni, unga ko'mak berishni doimo talab qiladi. Yaxshi xotin albatta o'z erini uning yaxshi amallarda qo'llab-quvvatlashi kerak. Bizning o'zbek ayollari o'z erining mavqeyi ortib borayotganligini doimo, o'zini chetga olish hisobiga bo'lsa ham, xushnudlik bilan qabul qiladilar. Chunki, erkak – boquvchi, ta'minotchi. Ammo buning aksi bo'lsa-chi?! Agar erkak ishsiz uyda qolib ketgan bo'lsa-yu, xotinining omadi chopib, yuqori lavozimlarga erishgan bo'lsa, ayol kishi oila boquvchisiga aylangan bo'lsa, bu oilada tomonlar bir birlarining mavqeyini to'g'ri tushunib olgunigacha, uzoq vaqt tinchlik bo'lmasligi aniq. Biroq hayotda kimning omadi chopishi aniq emas. Shu bois, kimga bo'lsa ham rizq berilganiga

shukronalik qilib yashash – to'g'riroq bo'ladi. O'ziga ishonmaslik hollari – uzoq vaqt xotin kishi uyda o'tirib qolsa, uning atrofida o'ziga xos do'stlari va davralari bo'lmasa, u ijtimoiy hayot tajribasidan, ijtimoiy muloqotdan mahrum bo'lsa, mana shunday o'z kuchiga va mavqyeiga ishonmaslik holatlari yuzaga kelishi mumkin..

Nafrat

Oilaviy hayotda o'z eri, yoki xotiniga nisbatan bo'lgan nafrat uzoq vaqt salbiy xis-tuyg'ular inson ichida to'planib, ularning yuzaga chiqishi uchun imkon berilmagan vaqtda vujudga keladi. Vaqti-vaqti bilan ko'ngil bo'shab turganida esa, ular so'rilib, inson qalbini bo'shalib borishiga imkon yaratadi. Shu bois, ko'pincha, ayollar o'z taqdirlaridan nolib, o'z dugonalari, qarindoshlari, onasiga ko'nglini bo'shatib olishga odatlanishadi. G'arbda esa ko'ngilni psixolog oldida bo'shatib, ruhan tinchlanish, nima qilish kerakligini bilib olish, orom olish odat tusiga kirgan. Bunda o'ziga xos mantiq mavjud. Ya'ni, salbiy xis-tuyg'ular erkin ifoda qilinishi asosida kuchayib, zo'rayib bormaydi. Ular to'planib, yechib bo'lmaydigan kuchga, emosiyalar eskalasiyasiga olib kelmaydi. Balki kam dozalarda, yig'ilmay chiqib ketib, inson ruhiyatining tinchlanishi uchun xizmat qiladi. Agar ko'ngilda kechayotgan barcha salbiy xis-tuyg'ular insonni behad darajada qiynayotgan, azoblayotgan bo'lsa, tabiiy ravishda biror holis odam bilan o'z muammolarini muhokama etish, o'z va o'z yaqinining xis-tuylari nima uchun bunchalik to'qnash kelayotganligini aniqlash, vaziyatga haqiqatan ham neytral munosabat bildirishga o'tish muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Nafrat insonni ichdan yemiradi. Uning osoyishtaligi buzadi. U inson salomatligiga qattiq salbiy ta'sir etadi. Ammo har doim ham sizning ko'ngligizda tug'ilgan nafrat aslan o'z yaqiningizning xatti-harakati yoki xatolari oqibati bo'lmaydi. Balki ko'proq ular siz o'z yomon va salbiy emosiyachlaringizdan qutilish yo'llarini bilmaganingiz, bu salbiy emosiyalarni o'nlab yillar davomida o'zingizga yuk qilib ortib olib yashayotganingiz oqibatidir. Bu yuk – og'ir yuk, ammo benaf, foydasiz yuk. Uning keraksiz yuk ekanligini o'zingiz anglab yetishingiz kerak. Chunki ko'pincha bu salbiy emosiyalarning kelib chiqishi va yig'ilib borishiga o'zga odamlar emas,

balki aynan sizning xarakteringiz aybdor. Ammo buni tan olishga ko'pincha sizning qat'iyatingiz va kuchingiz yetmaydi. Shu bois, siz bu yukni ko'tarib yuraverasiz. Tinch xolatda ular osuda bo'lib, ketganday tuyuladi, ammo ziddiyat holatida ular yangitdan bosh ko'tarib, o'zini bildirib boshlaydi. Shu bois, siz oilaviy ziddiyatlarda o'nlab yillar avval bo'lib o'tgan voqyealardagi sizga aytilgan so'zlarni, sizga qarshi qaratilgan emosiyalarning barini juda yaxshi esga olasiz va ularni ro'kach qilib gapirishdan rohatlanasiz. Ular, ya'ni salbiy xis tuyg'ular sizga shunchalik qadrdon bo'lib qolganki, siz faqat o'z salbiy emosiyalaringizning to'g'riligiga shubha qilmay ishonishingiz, boshqa odamlar sizga, "Yo'q, bu ish xato" deb aytsa ham, siz ulardan qutilish, ozod bo'lishga qo'rqayotganingiz, salbiy emosiyalardan qutilish sizni o'z ko'zingizda kuchsiz, o'z nuqtai nazarini o'tkaza olmagan, o'zini himoya qila olmagan insonga aylantirayotganligi sizning haqiqatda ham o'z emosiyalari oldida kuchsiz insonga aylantirib qo'yadi. Nafrat – insonlarni bir-biridan ayiradi, ularni birlashtirmaydi.

XULOSA

Oilaviy hayot, mehnat, kattalar va kichiklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, axloqiy-ma'naviy qiyofalari, ota-onalarning siyosiy va ma'naviy saviyalari, ularning iqtisodiy ta'minlanganligi, turli ko'rinishdagi faoliyatlari, vaqtni to'g'ri rejalashtirish, yashash sharoitlari va boshqalar oilaviy tarbiya samaradorligini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Biz mavzu yuzasidan quyidagi ilmiy-nazariy, tahliliy natijalarni qo'lga kiritdik:

yosh oilalar barqarorligini ta'minlashda ota-ona ibрати katta ahamiyatga ega;

oilada axloqiy tarbiya bilan ta'lim muassasalari tarbiyasi mushtarakligini ta'minlash kerak;

axloqiy va psixologik tushunchalarni xalq og'zaki ijodi manbalaridan foydalanib singdirish lozim;

bolalar psixologiyasining oilaviy hayot kamolotidagi o'ziga xos tomonlarini mavjud;

oilaviy hayotda urf – odat, an'ana, milliy ong va milliy til kabi ijtimoiy tushunchalar va O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloq, odob va oilaviy hayot xususidagi didaktik qarashlaridan foydalanish yaxshi samara beradi;

oilaviy tarbiyaning o'ziga xos qoidalaridan xabardor bo'lish va kamchiliklarini psixologik – pedagogik bilimlarga tayanib bartaraf etish darkor;

oilada er-xotin o'rtasidagi nizolarning omillari jumladan, ishonchsizlik, nafrat omillarining oldini olish bo'yicha pedagogik-psixologik bilimlar nizolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

Ayol kishi butun umr bolalar tarbiyasi bilan shug'ullangan bo'lsa ham, u juda katta ijtimoiy vazifa – yangi avlodlarni yetkazib berish, yangi fuqarolarni tarbiyalash ishi bilan shug'ullangan bo'ladi. Buni tan olish va qadrlash kerak. Chunki bu vazifa – ayol kishining eng ulug' vazifalaridan biridir. Shu bilan birga, oilalarda ayollarning o'z ustida ishlashi, ko'rkam bo'lishi, o'z fikriga ega bo'lishi uchun sharoit ham yaratib berilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. Sharq. 1999.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
4. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari. T.: «Shams ASA», 2005.
5. Akramova F.A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. T.: «Shams ASA», 2002.
6. Shoumarov G'.B., Sog'inov N.A. O'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari Ilmiy ishlar to'plami. –Toshkent, 1993.
7. Shoumarov G'.B., Sog'inov N.A. er-xotin orasidagi nizolarning etnopsixologik xususiyatlari. Ilmiy ishlar to'plami.. –Toshkent, 1993
8. Oila psixologiyasi. Akad. Lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv-qo'llanma. /Shoumarov G'.B., Sog'inov N.A., va boshqalar. – Toshkent, “Sharq” 2008.
9. Makarenko A. S. Kniga dlya roditeley. M. 1986.
10. Kaykovus. Qobusnoma. T, «O'qituvchi», 1986.
11. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu - lug'otit turk. T., 1960. (Uch tomlik).
12. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. T., 1983.
13. Munavvarov A. Pedagogika. T., 1996.
14. Rean A., Bordovskaya N., Rozum S. Psixologiya i pedagogika. “PITER” 2005
15. Rean A., Kolominskiy Ya.L. Sosialnaya pedagogicheskaya psixologiya. – SPb., 1999.
16. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. T., «Fan», 1972.
17. Lishin O.V. Pedagogicheskaya psixologiya vospitaniya. – M., 1997.

Elektron **ta'lim** resurslari.

1. www.ziynet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.kitob.uz
4. www.referat.arxiv.uz